

YASHIL HOM – ASHYOLARDAN QURILISH SOHALARIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI

K. N. Raximova

Farg`ona davlat universiteti Mustaqil izlanuvchisi

Abdurashidov Abdurahmon Mo`minjon o`g`li

Talabasi, Farg`ona davlat universiteti

A R T I C L E I N F O.

Kalit so‘zlar:

Yashil Hom, Samaradorligi.

Annotatsiya

Qurilish qadimdan, tosh – g‘orlarni tartiblashtirishdan boshlab davom etib keladi. Har bir mamlakat yalpi ichki mahsulotida qurilishning ulushi 6-9,5 foiz atrofida bo‘ladi. Qurilsih va qurilish bilan bog‘liq ishlarning rivojlanishi iqtisodiyotning qivojlanishida o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Eskiroq ma’lumot bo‘lsa ham dunyoning yirik mamlakatlarida qurilish ishlari hajmi to‘g‘ritidagi raqamlarni keltirib o‘tamiz. 2015 yilda Xitoy Xalq Respublikasi 1849mlrd dollarlik qurilishni amalga oshirgan bu eng katta raqamdir. Ikkinci o‘rinda AQSh 599mlrd dollar, uchinchi o‘rinda Yaponiya 596mlrd dollarlik qurilsih ishlarini bajargan. Hindiston – 333, Fransiya – 147, Germaniya – 143, Singapur – 131, Rossiya – 111, Turkiya – 35 mlrd AQSh dollar sarflagan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

O‘zbekistonda ham qurilish ishlari jadal olib borilayapti, sanoat korxonalari, neft, gaz, suv, elektr tizimlari turar joylar, maktab, bog‘cha, shifoxona, sport inshootlari, yo‘llar, ko‘priklar shular jumlasidandir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologik xavfsiz qurilishlarga talab katta. Kichik korxonalar, oilaviy biznes, yakka tartibdagи tadbirkorlik binolari qurilishiga ham alohida yondashuvlar talab qilinadi.

Temir – beton konstruktsiyali binolar sanoat va boshqa ishlab chiqarish sohalari uchun eng yaxshi yechim. Turar joylarni ham ko‘p qavatlari qilish, maishiy xizmat, ta’lim, tibbiyat, umumiyl ovqatlanish va savdo tashkilotlarini ko‘p qavatlari uyning birinchi qavatiga yoki ko‘p qavatlari uynin g alohida kirish yo‘lagiga , buni ham iloji bo‘lmasa, barcha turmush uchun kerakli bizneslarni ko‘p qavatlari uylarga yaqin joylarga qurish masalalarini ham ko‘rib chiqiladigan davrlar yaqinlashayapti. Lekin, xonardonning poli, ichki devorlari, tashqi devorlarining ichki tomonlarida yog‘ochdan tayyorlangan material va alohida detallardan foydalananish vaqtin yetib keladi. Chunki, temir beton devor va pollar inson salomatligi uchun sezilarli darajada zararlidir. Bundan tashqari, kichik biznesning sex, bin ova inshootlari ham yengil, iloji bo‘lsa yig‘ib tiklanadigan, ko‘rkam va qulay bo‘lsih kerak. Kanalizatsiyalar hamma joyda

bo‘lishi, foydalanilgan suvning ma’lum qismini takror foydalanish imkoniyatlari bo‘lsihni kerak. Tadbirkorlarga ko‘p funksiyali ishxona – sexlar qurib sotish, ijaraga berish, lizingga, kreditga berish kabi ko‘p masalalar borki, ular ham yashil iqtisodiyot, yashil biznes, yashil hududlar bilan bevosita bog‘liq.

Kichik biznesda band bo‘lgan ishchi – xizmatchilar kam bo‘lishi, ular foydalanadigan ishxona – sexlar turar – joylariga yaqin bo‘lishi, yanada muhimi, hom – ashyolar sexlar yaqinida bo‘lishi maqsadga muvofiq. E’tibor berilsa, sanab o‘tilgan qulayliklar ko‘p tomonlamadir. Ya’ni: ko‘chirib yurish mumkin bo‘lsin; ikki va undan ortiq maqsadlarda – sex hunarmandchilik xonasi bo‘lish bilan birga turar joyga va hom – ashyo mabaiga yaqin bo‘lsin; ko‘p joy egallamasin; shahar (qishloq)ning kundalik yashash talablariga xalaqit bermasin; ekologik toza va texnologik xavfsiz bo‘lsin.

Shunday ixcham, arzon ishxona (qurtxona)-sexlarni qurish istiqbollari qanday? Buning iloji bormi? Bunday kichik inshootlar ijtimoiy masalalarda va iqtisodiyotga qanday ta’sir ko‘rsatadi kabi savollarga javob topilsa, qurilish xajmlarin jadal o‘sib, qurilishda ham ko‘p ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat hom – ashyolardan samara bilan foydalaniladi.

Biz, hamma narsa inson uchun Inson uchun – insonning baxt saodati uchun, degan tamoildan kelib chiqib, yashillikka yashillik qo‘sghan holda, serdaromad, yengil, qiziqarli, arzon, hom – ashyoga doimiy hom – ashyoga asoslanadigan biznes – rekreatsion istirohat hududlaridagi biznesni taklif qilmoqdamiz. Shahar (qishloq) lardagi barcha o‘sib turganm manzaralni va mevali daraxtlarga, gulzorlarga zarracha ham ziyon yetkazmagan holda, ular orasidagi bo‘sh joylarga bir tupdan past bo‘yli tut daraxtlari ekibrespublikamiz hududida eng kamida 100 mln. tup tut daraxtlarini o‘stirib, ulardan har yili 10-12 xil hom – ashyolar olib, aholini uyiga yaqin joyda ish bilan ta’minalash ko‘plab eksportbop mahsulotlar ishlab chiqish, kambag‘allikni yo‘qotish maqsadini ilgari surib, asoslashni maqsad qilamiz.

Buning uchun budget tashkilotlarining xovlilarida, ko‘p qavatlari uylarning atroflarida, mahallalar ixtiyoridagi ko‘cha, hiyobon – bog‘larning bir chetlarida qurtxona – sexlar qurib o‘rnatish kerak bo‘ladi. Toki, zarurat bo‘lganda qurtxona – sexni boshqa joyga ko‘chirib o‘rnatish mumkin bo‘lsin.

Respublikamiz bo‘yicha nechta qurilish – sexlar kerak bo‘lishini aniqlash uchun kichik hisob – kitoblar o‘tkazish kerak. Bir quti (19 gram.) qurt urug‘ini boqib, 55-65 kg. pilla hosili olish uchun 40 kvadrat metr so‘ngak kerak. So‘ngaklar qurtxona ichiga 5-7 kvadrat o‘rnatiladi. Kamida 5 qavat so‘ngak o‘rnatilgan taqdirda ham, bitta qurtxona ichidagi so‘ngaklar maydonining 8 kvadrat metri (40;5) ga bir quti ipak qurti sig‘adi. Yo‘llarning chetidagi, imkoniyat bor joylarga 4 metrga 12 metr o‘lchamli (ingichka) qurtxona – sexlar o‘rnatilsa bo‘ladi. So‘ngak (2m.*10m) 20 kv. metr bo‘lib (20:8) 2,5 quti ipak qurti boqib 110-130 kg. pilla yetishtirish mumkin. Bog‘, hiyobon, hovlilarda katta qurtxona – sexlar o‘rnatilsa ham imkoniyat bor. 10 metrga 20 metr o‘lchamli plastik materiallardan quriladigan qurtxona sexlari ichiga 3 qator (6 metrga 20 metr) 120 kvadrat metr so‘ngaklar o‘rnatish mumkin. Bu qurtxona – sexda (120:8) 15 quti ipak qurti boqsa bo‘ladi. Qurtxonalaridan bir yilda 1-3 martagacha ipak qurti boqish uchun foydalanilgan taqdirda (3 oy), qolgan 9 oy davomida undan ishxona, ya’ni to‘quv, tikuv, hunarmandchilik sexi, mebel ustaxonasi sifatida foydalanish mumkin.

Ma’lumki, bir quti ipak qurti boqish uchun 900-1000 kg. tut barglari kerak bo‘ladi. Demak, bir quti ipak qurti uchun 200 tup tut bargi talab qilinadi. Qurtxona – sexlarning yarmi kichik o‘lchamli (ixcham) va qolgan katta o‘lchamli (120 kvadrat metr) so‘ngakli bo‘lishini tasavvur qilsak, u holda (50 mln.tup:200 tup*2.5 quti) yuz ming dona mayda, (50 mln.tup:200 tup*15 quti) 16667 dona katta qurtxona – sexlar v shunga yarasha yig‘ma so‘ngaklar kerak bo‘ladi. So‘ngaklar va qurtxonalarini qurish uchun ishchi kuchlari, hom – ashyolar kerak bo‘ladi. Kichik sexlar (ichining umumiyl maydoni 48 kvadrat metr) o‘z ichiga 12-16 nafar ishchini sig‘dira oladi. Katta sexlar 50-60 kishiga yetarli ish joyi (4 kvadrat metrdan) bera oladi. Ekin joylari, sanoat korxonalarini maydonlarini egallamaydigan bu qurtxona – sexlarda 1 mln.400 ming va 920 ming, jami 2mln.200mingdan ko‘proq ish o‘rinlaridan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bu ish o‘rinlari asosan ichki ehtiyojlarni qondirish uchun foydalaniladi. Ipak gilam va ekzotik

ipak mahsulotlar eksportga ham chiqariladi.

Asosiy eksport mahsulotlar jarrohlik ipi, parashyut, deraza pardalari, kostyumlar va sanoat asosida tayyorlanadigan qimmatbaho ichki kiyim, yotoqxona anjomlari yirik korxonalarda ishlab chiqariladi. Ko‘p detalli mebel to‘plamlari ham ixtisoslashtiriladigan mebel korxonalarida ishlab chiqarilishi mumkin.

Mebelsozlik va qurilish materiallari ichida tut novdasi asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Surxondaryolik sanoatchilar o‘zlariga ko‘p va juda arzon tayyor bo‘ladigan qurilish materiali tabiiy qamishni qo‘llay boshlaganlari kabi, boshqa hududlarda ham turli foydalanilmay turgan hom – ashyolar ko‘p. Toshdan qog‘oz ishlab chiqarish Farg‘ona shahrida yo‘lga qo‘yildi. Ehtimol qir, adirlarda o‘sib yotgan bir yillik tikan o‘simligi ham noyob hom – ashyodir. Ehtimol oltindan qimmat qumni biz qurilishda ishlatib yurgandirmiz va kelajakda g‘ozapoya, somon va tut novdasi aralashmasidan ko‘p qavatli uylar qurish mumkinligi o‘z isbotini topar. Buning uchun ko‘plab izlanishlar kerak bo‘ladi. Ehtimol, ularning ayrimlari yaxshi samara berib qolar. Iqtisodiyot mustahkamligining zaxirasiga aylanib qolar. Hali ko‘p qavatli uzumzor bog‘lar kabi, ko‘rinib turgan imkoniyatlarni ham sinab ko‘rganimiz yo‘q. ko‘p qavatli tomorqa qurib, oilalarga lizingga bersak, o‘sh hududning ham qishloq deb atashadimi? Kabi savollar har doim bo‘ladi. Qurilish mamalkatlar iqtisodiyotida doim muhim o‘rin egallab kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Ko‘p qavatli uylar qurilishi, kanallar, sport inshootlari qurilishi, aeroportlar, sayohatgohlar va hokazo. Qurilishlar uchun ham hom – ashyolar kerk. Tabiiy tosh, qum, shag‘al zaxiralari ham o‘lchovli, qolaversa ulardan foydalanish yo‘nalishlari ham ko‘ayib boraverai. Yashil hom – ashyolar esa tabiatda suv aylanib turgani kabi takror-takror o‘sib, uni chiqaveradi. Ularni tejab, smara bilan foydalanish esa zaruratga aylanib boraveradi.

Shunda ham ekin yerlar va suv resurslarini tejab foydalanish bosh vazifa bo‘lib qolaveradi. Chunki, yer oziq-ovqat, salomatlik manbai. Yer tanlamay, soya-salqin, zax, sho‘r demay o‘sib ro‘yxat bo‘yicha sanalganda 20 xildan ortiq turdagи mahsulotlar beradigan tut daraxtining iqtisodiyotdagi o‘rnini hamma, beistisno bilishi kerak. Atirgul ham kerak. Tut esa atirgul ichida ham o‘saveradi. Kamtarin, serdaromad daraxt. Aholimiz xovlilarida 200-300 yillik tutlar haligacha bor va ularni haligacha e’zozlab saqlashadi. Ocharchilikdan olib chiqqan qaxramon daraxt deb yaxshi ko‘rishadi. Kechagi kunni unutmagan xalq baxtli xalqdir.

100 mln. tup tutning bargi bilan bir marta ipak qurti boqishda kerak bo‘ladigan qurtxona – sexlar soni, qurtxonaning ichki o‘lchamlari 4 metrga 12 metr bo‘lganda, so‘kchak 2 metrga 10 metr, ya’ni 20 kvadrat metr bo‘ladi. Chunki, so‘kchakning to‘rt tomonidan bir metrdan yo‘lak qoldiriladi. (2^*10) 20 m^2 dan 5 qavat so‘kchaklarning umumiyligi maydoni 100 m^2 ni tshkil etadi. Qurtxonaning umumiyligi ichki maydoni esa ($4*12$) $48,0 \text{ m}^2$ ga teng bo‘ladi. Sexda ishlovchi har bir xodim uchun 4 m^2 dan ish joyi ajratilgan taqdirda bu sexda 12-14 kishiga joy yetarli bo‘ladi deya olamiz.

So‘kchaklari maydoni 100 m^2 bo‘lgan qurtxonalar nechta bilan hamma tutlarning bargidan to‘liq foydalanish mumkin ekanligini bilsih uchun 100 mln tup tutlar sonini 500 tup-bitta qurtxonada sarflanadigan bargni yetkazib beradigan tutlar soniga taqsimlaymiz. ($100000000:500$) va 200 ming dona qurtxona kerakligini aniqlaymiz. 200 ming qurtxona va ularning ichiga o‘rnataladigan 5 qavat (100 m^2) so‘kchaklarni yasab o‘rnatish uchun quruvchilar 2 yildan kam bo‘lmagan vaqt timimsiz 2-3 smenada ishlashlari kerak bo‘ladi. Plastik materiallar yetkazib beruvchi kimyo zavodi ham uch smenada ishlashi kerak bo‘ladi. Bunda, o‘rta xisobda ham har bir voiloyat hududlariga 20 ming donadan, shahar va tumanlarda es 1000-1500 dondadn qurtxonalar o‘rnatilib, foydalanuvchilarga ijara (yoki lizingga) berilishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximova, Q. N. Q. (2022). THE SOCIO-ECONOMIC NEED FOR GROWING THE IMPORTANCE OF GREEN BUSINESS. *Scientific progress*, 3 (2), 880-885.
2. Mirzaev Ravshanjon Burxonovich (2022). THE IMPORTANCE OF BASIC MATERIALS AND TECHNOLOGICAL LOSSES IN INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY IN THE FORMATION OF COST. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3 (1), 727-732.
3. Mirzaev R. B., & Yuldashev, X. A. (2022). EFFECT OF CONSUMER REQUIREMENTS ON THE PRODUCTION COST OF AUTOMOBILE WINDOWS. *Scientific progress*, 3 (2), 1173-1178
4. Mirzaev Ravshanjan Burkhanovich. Fergana State University, Part-time studies Department Lecturer of the Department of Social-Humanitarian Sciences. Akhmadaliyeva Mokhigul Kadirova Fergana State University, Part-time studies Department Lecturer of the Department of Social-Humanitarian Sciences IMPROVEMENT OF ORGANIZATIONAL ECONOMIC IMPACT OF PRODUCT COST REDUCTION ON THE BASIS OF COST-EFFECTIVE USE OF RESOURCES
5. Мирзаев, Р. Б., & Юлдашев, Х. А. (2022). АВТОМОБИЛ ОЙНАЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА ИСТЕМОЛЧИ ТАЛАБЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАННАРХИГА ТАЪСИРИ. *Scientific progress*, 3(2), 1173-1178
6. BENEFITS OF HOUSEHOLD APPLIANCES IN THE PROTECTION OF THE ENVIRONMENT AND WATER RESOURCES MO Baltabaeva, DA Kadirova
Thematics Journal of Economics, India 8, 2-5, 2022
7. The need to provide the priority of spiritual and educational processes in the modern education system
8. Рахимова, К. Н. К. (2022). Яшил бизнес аҳамиятининг ортиб боришининг ижтимоий-иктисодий зарурати. *Scientific progress*, 3(2), 880-885.
9. Rakhimova, K. (2022). SOCIO-ECONOMIC NECESSITY OF INCREASING THE IMPORTANCE OF GREEN BUSINESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 1034-1037.
10. 10. Akhmadaliyeva, M. (2022). REFORMS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE DEVELOPMENT OF FAMILY SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN OUR COUNTRY. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 439-442.
11. Махсудов, Ш. С. (2022). ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *Scientific progress*, 3(4), 159-166.
12. Абдусаматов, Д. А., & Рахимов, Н. Р. (2021). Технологические Особенности Изготовления Афн-Пленок И Приборных Структур На Их Основе.
13. Рахимов, Н. Р., & Абдусаматов, Д. А. (2021). Определение Природы Возникновения Аномального Фотонапряжения И Разработка Оптрона На Их Основе.